Raqamli bank xizmatlarini yaxshi rivojlangan mamalakatlardan biri sifatidan Yaponiyani olishimiz mumkin. Boshqa davlatlarda bo'lgani kabi Yaponiyada ham moliya sohasini raqamlashtirishning asosiy maqsadi muassasalar boshqaruvini takomillashtirish, optimallashtirish, boshqaruv samaradorligi oshirish, filiallar va bankomat tarmoqlarini kamaytirish orqali xarajatlarni tushirishdan iborat.

Yaponiya banklari ma'lumotlardan foydalangan holda ular bilan raqobatlashayotgan nobank kredit tashkilotlarining innovatsion xizmat ko'rsatish kabi sohalarni o'rganadi va tahlil qiladi, yanada mukammallashtirib jismoniy va yuridik shaxslarga moliyaviy operatsiyalarni taqdim etadi. Yaponiyada eng birinchi raqamli bank sifatida faoliyat yuritgan bank bu **"Minna bank"** hisoblanadi. U o'z letsinziyasini 2020-yil 22-dekabrda qo'lga kiritgan va 3 ta muhim konsepsiya asosida moliyaviy opeartsiyalarni taqdim etmoqda.

1. An'anaviy bank xizmatlaridan voz keching.
2. O'ziga xoslikka e'tibor qarating.
3. Ishonchni kengaytiring va evaziga ishonchli bo'ling.




2-rasm. Minna bank moliyaviy ko'rsatkichlari tahlili ( billion yen)[5].

Yuqoridagi rasmdan ma'lumki Minna bankning moliyaviy ko'rsatkichlari ichida eng yuqori ko'rsatkichni jami aktivlar egallaydi 29171,9 billion yen bilan. Shu o'rinda jami depozitlari ulushi ham anchagina ekanligini ko'rishimiz mumkin 20085,8 billion yen va bundan ko'rinadi bankning moliyaviy barqarorligi ancha yuqori chunki jalb qilingan depozitlarining salmog'i baland. Ammo Minna bankda sof daromad past ko'rsatkichda ekanligini ko'rishimiz mumkin chunki bank faoliyatini boshlaganligiga ko'p bo'lgan emas.

Minna Bank o'z mijozlariga o'z pullarini smartfon orqali to'liq nazorat qilish va ilgari ko'p vaqt talab qiladigan bank operatsiyalarini muammosiz va intuitiv tarzda amalga oshirish imkoniyatini taqdim etadi. Bularga, masalan, virtual debet kartasi, byudjetlashtirish funktsiyalari va overdraftdan himoya qilish "barchasi birda" yondashuv sifatida kiradi.

Minna Bank 2023-yilda sezilarli daromad o'sishini ko'rsatdi. Ularning 2023-yil oxirigacha 1,2 million mijoz hisob raqamlariga ega bo'lishi, 220 milliard yen omonatlar va 80 milliard yen iste'mol kredit balanslariga erishish rejalari bor. Ushbu raqamlar bankning daromadlarini sezilarli darajada oshiradi va bankni foydali qilishi kutilmoqda.

5 Sayt ma'lumotlaridan foydalanib muallif tomonidan tayyorlangan.



TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Bank bozorida mavjud o'yinchilarning yangi raqobatchilari raqamli ekotizimlar bo'lib, ular telekom xizmatlarini moliyaviy servis bilan birlashtiradi. Ko'pgina turli xil servislar o'rniga foydalanuvchi, uning yordamida onlayn-do'konda xarid qilishi, taksi chaqirishi va hokazolar uchun yagona vositani oladi, ushbu barcha muammolarning echimlarini bitta superappga birlashtirib, kompaniya mos ravishda mijozning e'tiborida va uning hamyonida tobora ko'proq ulushga ega.

2023-yil bank sektori ishtirokchilarning yanada faolligi bilan ajralib turishi kutilmoqda. Ko'plab banklarning bizneslarini raqamlashtirishni hisobga olgan holda raqobat yanada qattiqroq bo'ladi. Bozorda tobora ko'proq fintech kompaniyalari, shuningdek, bank bozoridagi raqobatni yanada kuchaytiradigan yangi mikromoliya tashkilotlari paydo bo'ladi.

### Foydalanilgan adabiyiotlar ro'yxati


1. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvi tomonidan 18.10.2009-yildagi 23/3-son bilan tasdiqlangan "Banklarni ro'yxatga olish va ular faoliyatini litsenziyalash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" nizomi. lex.uz›ru/docs/-1524224
2. Chimwemwe Chipeta and Moses M Muthinja, "Financial Innovations and Bank Performance in Kenya: Evidence from Branchless Banking Models," South African Journal of Economic and Management Sciences 21, no. 1 (2018): 1–11.
3. Cajetan Ikechukwu Mbama et al., "Digital Banking, Customer Experience and Financial Performance: UK Bank Managers' Perceptions," Journal of Research in Interactive Marketing 12, no. 4 (2018): 432–51.
4. cbu.uz – markaziy bank sayt.
5. Банковское дело. Под ред. Лаврушин О.И. – Москва: Финансы и статистика, 2001, С. 74.
6. Косорева Н.Б. Основы ипотечного кредитования. – М.: ИНФРА-М, 2007. –С.5.
7. Нешитой А.С. Финансы и кредит. –М.: "Биржа и банки", 2006. –С.571.
8. Nurmuhammedov B.B. Aholiga takif etilayotgan ipoteka kreditarini yanada takomillashtirish // "Bozor,pul va kredit" ilmiy jurnali, Toshkent, №5, 2021 16-21 b.

# O‘Z O‘ZINI BAND QILISHNING IJTIMOIY-IQTISODIY SAMARADORLIGINI O‘LCHASHNING ASOSIY YONDASHUVLARI



**Tursunxo‘jayeva Gulnoza Jamoliddin qizi**
Tashkent International university davlat moliyasi va xalqaro moliya mutaxassisiligi magistranti

Annotatsiya: Maqolada aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo‘llab-quvvatlashga, sog‘liqni saqlash, ta’lim va madaniyat sohalarini rivojlantirishga qaratilgan ijtimoiy ahamiyatga molik dasturlarning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini o‘lchashning asosiy yondashuvlari ko‘rib chiqilgan.

Maqolada ijtimoiy dasturlar samaradorligini baholash tizimlari va jarayonlarini ishlab chiqish, xalqaro va mahalliy amaliyotni moslashtirish, moliyalashtirish va ijtimoiy farovonlikka qo‘shilgan hissalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni kuzatish va namoyish etish bo‘yicha o‘z tajribasini shakllantirish zarurligi yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik, ijtimoiy dasturlar, moliyalashtirish, asosiy yondashuvlar.

Аннотация: В статье рассматриваются основные подходы к измерению социально-экономической эффективности социально-значимых программ, направленных на поддержку социально уязвимых групп населения и развитие сфер здравоохранения, образования и культуры. Оценивается возможность стоимостной оценки влияния таких программ на общество, несмотря на трудности, связанные с измерением разнообразных (чаще всего натуральных) изменений и эффектов.

Статья подчеркивает важность развития систем и процессов для оценки эффективности социальных программ, адаптации международных и отечественных практик, а также необходимости генерации собственного опыта отслеживания и демонстрации связей между финансированием и вкладом в общественное благополучие.

Ключевые слова: торговые услуги, товарооборот, качество, сфера услуг, специальные льготы.

Abstract: The article discusses the main approaches to measuring the socio-economic effectiveness of socially significant programs aimed at supporting socially vulnerable groups of the population and developing the spheres of healthcare, education and culture. The possibility of valuing the impact of such programs on society is assessed, despite the difficulties associated with measuring various (most often natural) changes and effects.

The article highlights the importance of developing systems and processes for assessing the effectiveness of social programs, adapting international and domestic practices, and the need to generate one's own experience in tracking and demonstrating the links between funding and contributions to social well-being.

Key words: socio-economic performance, social programs, financing, mainstream approaches.

## KIRISH

Bugungi kunda respublikada iqtisodiyotni isloh qilish va diversifikatsiyalash, faol investitsiya siyosati yuritish hisobiga yetakchi tarmoqlarni modernizatsiyalash va texnologik jihatdan qayta jihozlash, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirishni rag‘batlantirish asosida har yili minglab yangi ish o‘rinlari yaratilmoqda, bu o‘z navbatida o‘ta dolzarb muammo hisoblangan aholi, avvalambor yoshlar bandligini ta’minlash imkonini bermoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi “O‘zbekiston – 2030 strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-sonli Farmonida birinchi ustuvor yo‘nalish sifatida har bir insonga o‘z salohiyatini ro‘yobga

chiqarishi uchun munosib sharoitlarni yaratish belgilab berilgan. Ushbu yo'nalishning uchinchi qismida ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha islohotlar va ushbu islohotlarga olib boruvchi maqsadlar ko'rsatib o'tilgan. Aynan shu yo'nalishda nogironligi bo'lgan shaxslarni munosib ish bilan ta'minlash orqali ular bandligini 2 barobarga oshirish, mehnatga layoqatli aholini, shu jumladan yoshlar va nogironligi bo'lgan shaxslarni barqaror va samarali bandligini ta'minlash orqali ishsizlik darajasini 7 foizgacha tushirish, 400 ming nafar yoshlarning bandligini ta'minlash va muammolarini hal etishga erishish, oilaviy tadbirkorlik asosida bandlikni ta'minlashda oddiy "qo'l mehnati"dan — sanoatlashgan ishlab chiqarish bosqichiga o'tish, uskuna sotib olish uchun imtiyozli kredit miqdorini 100 million so'mgacha oshirish 23, 28, 32, va 56-maqsadlar sifatida aniq ko'rsatib o'tilgan [1].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "**2022—2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi** to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmonining 29-maqsadida 2026-yilga borib tadbirkorlik subyektlariga soliq yuklamasini yalpi ichki mahsulotning 27,5 foizidan 25 foizi darajasiga kamaytirish, 129-maqsadida sharoiti "og'ir" bo'lgan hududlarda 2025-yil 1-yanvargacha yangi tashkil etiladigan tadbirkorlik subyektlariga aylanmadan olinadigan soliq stavkasi 1 foiz stavkada hamda yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i, yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqlari hisoblangan summadan 1 foiz stavkada to'lash tizimini joriy etish va 172-maqsadida esa xizmatlar sohasining jozibadorligini oshirish maqsadida sohadagi tadbirkorlik subyektlariga qo'shimcha imtiyozlar taqdim etilishini ta'minlash [2] kabi islohotlarni amalga oshirilishi belgilangan.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

"Samaradorlik" tushunchasi iqtisodiyotdagi markaziy tushunchalardan hisoblanib, Richard Musgrave ushbu atamaga keng ma'noda, "samaradorlik o'z mohiyatiga ko'ra obyektiv bo'lib, u cheklangan resurslar bilan belgilanadi. Iste'molchi o'z xohish-istaklarini, mavjud resurslarni va resurslarni tovarlarga aylantirish texnologiyalarini bilib, ishlab chiqarishni o'z ehtiyojlarini maksimal darajada qondiradigan tarzda tashkil qilishi ya'ni samarali harakat qilishi mumkin. Biroq, amalda iqtisodiy jarayonlar shaxsning emas, balki ko'pchilikning (iste'molchilar, fuqarolar, korxonalar) manfaatlariga ta'sir qiladi va imtiyozlarni taqsimlash tizimi faoliyat yuritadi", [3] deb ta'kidlagan. I.N.Bartsis "Har qanday faoliyatning samaradorligi kerakli natijalarga erishish jarayoni va eng muhimi, eng kam xarajat bilan kerakli yoki berilgan natijaga erishish bilan bog'liq, [4] deb ta'rif bergan. I.A.Mayburovning talqin etishicha, "Samaradorlikni aniqlashda oddiy yondashuvdan foydalanish mumkin: tegishli ta'sir turi uchun tahlil qilingan ko'rsatkichning umumiy o'sishi ushbu o'sishni tashkil etuvchi imtiyozlar soniga bo'linishi kerak" [5] . I.V. Gorskiy "Soliq ko'p vektorli vosita bo'lib, ularning ta'siri aql bovar qilmaydigan murakkablikdagi vazifadir. Foydalanish natijasini ajratib ko'rsatish va bu aniq natijani ushbu imtiyoz tufayli olingan deb aytish har doim ham mumkin emas. Bu shuni anglatadiki, ahamiyatsiz bo'lmagan yondashuvlar talab qilinadi", [6] deb ta'rif bergan. I.V.Ganusenko "Mahalliy fanda soliq siyosati konsepsiyasini shakllantirish muammosi davlat iqtisodiyotini rivojlantirishni rag'batlantirishning eng samarali vositalarini izlash bilan bog'liq" [7] deb izohlagan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ilmiy maqolani tayyorlash jarayonida ma'lumotlarni jadvallar asosida tahlil qilish, ma'lumotlarni guruhlash, abstrakt-mantiqiy fikrlash hamda ekspert baholash usullaridan unumli foydalanildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Ijtimoiy himoyaga muhtoj guruhlarga xizmat ko'rsatadigan yoki sog'liqni saqlash, ta'lim, madaniyat kabi sohalarda loyihalarni qo'llab-quvvatlaydigan dasturlar ko'pincha muayyan tashkilotlarga yoki alohida shaxslarga to'g'ridan-to'g'ri (homiylik) yordam sifatida qabul qilinadi, lekin umumiy manfaat uchun amalga oshiriladigan faoliyat sifatida baholanmaydi. Shu bilan birga, ushbu tashabbuslarni amalga oshirishga qaratilgan moliyaviy sarmoyalar foydalanuvchilar va butun jamiyat uchun resurs xarajatlaridan ancha yuqori bo'lgan foyda keltirishi mumkinligini bunday dasturlar jamiyatga ko'rsatadigan ta'sirining qiymatli bahosi sifatida ko'rsatiladi. Bunday holatni o'lchash va qayd etish oson emas, chunki dasturlar ta'sirini o'lchash va bu ta'sirlarning yuzaga kelishiga sabab bo'lgan xarajatlarni baholash uchun turli ko'rsatkichlardan foydalaniladi. Haqiqatan ham, bir tomondan, biz umumiy (pul) ifodasiga ega bo'lgan investitsiyalar bilan ish olib borsak, boshqa tomondan, dasturlarni amalga oshirish natijasida yuzaga keladigan turli (ko'pincha tabiiy) o'zgarishlarni ko'rib chiqamiz (masalan, o'z-o'zini band etish darajasi, ajrimlar sonini kamayishi, muammoli oilalardan chiqqan bolalar, inqirozli oilalardan chiqqan bolalar, ishga joylashgan ota-onalar va boshqalar).

Biroq, barcha qiyinchiliklarga qaramay, jamiyatga ijtimoiy ahamiyatli dasturlarning samaradorligini va ta'sir darajasini baholash imkonini beradigan tizim va jarayonlarni yaratish mumkin boʻlgan vazifa hisoblanadi. Bu, birinchi navbatda, hayot sifatini va foydalanuvchilarning mustaqillik darajasini oshirishga, ularning bilim va koʻnikmalarini rivojlantirishga, shuningdek, ularning ijtimoiy holatini oʻzgartirishga qaratilgan ijtimoiy investitsiyalar dasturlariga tegishli boʻladi. Bunday dasturlarning mohiyati, yordamga muhtojlarga moddiy boyliklarni oddiygina tarqatish yoki taqsimlashda emas, balki insonlarning ijtimoiy holatini oʻzgartiradigan va ularning inson kapitali qiymatini oshiradigan xizmatlarni koʻrsatishda ekanligi bilan farqlanadi. Turli sabablarga koʻra, uzoq muddatli barqaror ijtimoiy natijalar (yoki bunday dasturlarni amalga oshirishdan jamiyat uchun foyda keltiradigan ta'sirlar) hozircha qiymatli oʻlchovga solinishi juda murakkab jarayon hisoblanadi.

Shuni ta'kidlash joizki, AQShning yirik xayriya jamgʻarmalarining atigi choragi (26%) [8] dasturiy faoliyatni baholash uchun "xarajat-foyda" tahlilidan (CBA – cost-benefit analysis) foydalanadi. Ushbu holat quyidagi sabablar bilan izohlanadi: qiymat tahlilini oʻtkazuvchi tashkilotlarning maqsadlari oʻrtasidagi farqlar; dasturlar bilan bogʻliq ijtimoiy foydalar va xarajatlarning toʻliq spektrini (aniq va noaniq) qamrab oladigan moslashuvchan vositalarning yoʻqligi; samarali dasturlarni amalga oshirish natijasida yuzaga keladigan koʻplab jamiyat uchun muhim boʻlgan foydalarning pul ifodasiga ega emasligi; baholash metodologiyalarining yetarlicha rivojlanmaganligi va standartlashtirilgan yondashuvlarning yoʻqligi shular jumlasidandir.

Bugungi kunga qadar yetakchi ekspertlar dasturlar qiymatini baholash natijalarini ijtimoiy investitsiyalar boʻyicha qaror qabul qilish jarayonida amaliy qoʻllash borasida kelishuvga erishmagan. Masalan, ba'zi mutaxassislarning fikriga koʻra, ushbu ma'lumotlarni, avvalo, turli dastur yoʻnalishlari oʻrtasida mablagʻlarni taqsimlashda hisobga olish kerak. Boshqa bir nuqtai nazarga koʻra, qiymat baholash natijalarini asosan bir dastur yoʻnalishi doirasida resurslarni taqsimlashda hisobga olish maqsadga muvofiqdir (masalan, sogʻliqni saqlash sohasidagi, iqlim oʻzgarishi bilan kurashish sohasidagi).

"Xarajat-foyda" tahlilidan tashqari, ijtimoiy oʻzgarishlarda ishtirok etuvchi yetuk tashkilotlar ijtimoiy ahamiyatli dasturlarning samaradorligini baholashda boshqa yondashuvlardan ham foydalanadilar [9], masalan, "xarajat-samaradorlik" tahlili (*CEA — cost-effectiveness analysis), "xarajat-foyda" tahlili (CUA — cost-utility analysis*) va boshqa shu kabi metodikalar. "Xarajat-samaradorlik" tahlili "xarajat-foyda" tahlili bilan bir qatorda qiymatni oʻlchashning klassik yondashuvi hisoblanadi. Bu turdagi tahlil dasturlarning samaradorligini baholashda xarajatlar va natijalar oʻrtasidagi nisbatni — dasturlar samaradorligini oʻlchaydigan tabiiy birliklarda — hisobga olishni taklif qiladi. Masalan, CEA usuli sogʻliqni saqlash sohasida keng qoʻllaniladi, bu yerda aralashuv/tibbiy davolanish xarajatlari inson umrining davomiyligiga va hayot sifati koʻrsatkichlariga ta'siri bilan solishtiriladi. Natijalarni xarajatlar bilan taqqoslash, dasturlarni bir predmet sohasida olish mumkin boʻlgan tabiiy natijalarga qarab, samaradorligiga koʻra baholash imkonini beradi. Bunday yondashuv tufayli, turli predmet sohalaridagi dasturlar yutuqlarini yagona pul ifodasiga (monetizatsiya qilish) keltirishga urinayotganda paydo boʻladigan noaniqlik muammosini chetlab oʻtish mumkin.

Taklif etilayotgan yondashuv tashkilotlarni jamoa muvofiqlariga va ularning oila a'zolariga foyda koʻrsatadigan ijtimoiy muhim dasturlarning komponentlarini baholashga qaratilgan. Bu, oʻzgartirilgan holat (yoki manzili) boʻyicha foydalanuvchilar va ularning oila a'zolarining va umumiy jamiyatning oladigan foydasiga e'tibor qaratadi, jamiyat tomonidan ta'minlangan ijtimoiy qoʻllab-quvvatlash xarajatlari ehtiyotidagi iqtisodiy foyda bilan bogʻliqlikni oʻz ichiga oladi.

Samaradorlikni baholashning klassik usullaridan biriga, ya'ni xarajat-foyda tahliliga asoslanib, tavsiyalar, bir tomondan, bunday tahlilga mos keladigan ijtimoiy foyda/foyda uchun pul qiymatini izlashdan boshlashni taklif qilsa yana bir tomondan, tegishli xarajatlar va xarajatlar; soʻngra natijalarni oʻzaro bogʻlab, foyda-xarajat nisbatini aniqlashga xizmat qiladi. Ijtimoiy natijalar va ta'sirlar nisbati (pul koʻrinishida) va sarflangan resurslar narxini koʻrsatish maqsadida tavsiyalar dasturlarning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligi kabi tushunchadan foydalanishni taklif qiladi.

Shunday qilib, ijtimoiy ahamiyatga ega boʻlgan dasturlarning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligi deganda pul shaklida oʻlchanadigan ijtimoiy natijalar va ta'sirlar hamda ushbu tashabbuslarni amalga oshirish xarajatlarining nisbati tushuniladi.

Soliq tizimining asosiy vazifasi bu fiskal funksiyasi hisoblanadi. Boshqa funksiyalar esa jamiyatning daromadlar boʻyicha farqlarini kamaytirish, talab va taklif mexanizmi orqali ishlab chiqarish tuzilishi va hajmiga ta'sir koʻrsatish, ilmiy-texnikaviy taraqqiyotni ragʻbatlantirish hamda tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishdan iborat [10].

Quyida keltirilgan 1-jadval orqali xalqaro tajribada keng qoʻllaniladigan soliq tizimini baholash va tashkil etishda foydalaniladigan mezonlar va ularning izohlarini koʻrib chiqamiz.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

1-jadval. Soliq tizimini baholash mezonlari

| T/r | Mezonlar | Izoh |
|---|---|---|
| 1 | Oddiylik | Soliq tizimi sodda va tushunarli bo'lishi kerak. Oddiylik oddiy va tushunarli tartiblarga asoslanadigan boshqaruv imkoniyatlarini anglatadi. |
| 2 | Ochiqlik va oshkoralik | Ochiqlik va oshkoralik soliqlarning turlari, miqdorlari va to'lash muddatlariga oid barcha ma'lumotlarning umumiy foydalanishda bo'lishini, fuqarolarning undiriladigan soliqlar hajmi va ulardan foydalanish yo'nalishlari to'g'risidagi ma'lumotlardan ham foydalanish imkoniyati mavjudligini anglatadi. |
| 3 | Moslashuvchanlik prinsipi | Soliq tizimini moslashtirish imkoniyati va soliq stavkalari, soliq solinadigan bazaning o'zgarishi, shuningdek, soliq to'lovchilar va soliq organlari o'rtasidagi yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nizolarni hal qilish tartib-qoidalarining mavjudligi. |
| 4 | Iqtisodiy betaraflik | Soliqning davlat sektoridan tashqarida joylashgan iqtisodiyot tarmog'iga ta'sirini hisobga oladigan iqtisodiy neytrallik omili, ya'ni soliqlarning xususiy tovarlarni ishlab chiqarish va yetkazib berishda resurslarni birlashtirishga ta'siri masalasini o'z ichiga oladi. Ushbu prinsipga ko'ra soliqlar buzuladigan va buzilmaydiganlarga bo'linadi. Buzilgan soliq bu uni joriy etishda xo'jalik yurituvchi subyekt resurslarni taqsimlash to'g'risida soliq joriy etilishidan oldingidan boshqacha qaror qabul qiladi. Buzilmaydigan soliq iqtisodiyotga bunday ta'sir ko'rsatmaydi. |
| 5 | Majburiyatlar tengligi | Majburiyatlarning tengligi deganda, soliqlarni ajratish fuqarolarning moliyaviy farovonligi asosida amalga oshirilishi mumkin emasligi nazarda tutiladi. Soliq solinishi kerak bo'lgan obyekt, birinchidan, ishlab chiqarish va ikkinchidan, iste'mol. Bu ikki tamoyilga asoslanadi: olinadigan foyda tamoyili, ya'ni davlat harakatlarining turli xil soliq to'lovchilar uchun foydaliligidagi farqlarni ko'rsatadi; to'lov qobiliyati tamoyili, ya'ni fuqarolarning soliq to'lash imkoniyatining haqiqatda mavjud bo'lishi nazarda tutiladi. |
| 6 | Qulaylik prinsipi | Har bir soliq to'lovchi to'lashi kerak bo'lgan soliq to'lovlari to'g'risida xabardor qilinadi. |
| 7 | Adolat prinsipi | Mazkur prinsip soliqqa tortishning universalligini bildiradi. Har bir soliq to'lovchi davlat byudjetini to'ldirishda ishtirok etishga majburdir. |

Manba: Adabiyotlar sharhi asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash joizki, o'z-o'zini band qilishning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini baholashdagi yondashuvlar tahlil qilinib, CEA (cost-effectiveness analysis), "xarajat-foyda" tahlili, CUA (cost-utility analysis) kabi usullardan foydalanish taklif etiladi. Shuningdek, fiskal siyosatni amalga oshirishda soliq tizimini oddiylik, ochiqlik va oshkoralik, iqtisodiy betaraflik, majburiyatlar tengligi kabi mezonlar asosida baholash hamda ushbu tizim moslashuvchanlik, qulaylik hamda adolat prinsiplariga asoslangan bo'lishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni. –T.: «O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami», 2022 yil, 28 yanvar – https://lex.uz/uz/docs/-5841063
2. Масгрейв Ричард А. Государственные финансы: теория и практика. М.: Бизнес Атлас, 2009. С.244.
3. Барциц И.Н. Социальная эффективность государственного управления: модели, критерии, российский опыт внедрения//Проблемы управления. 2011. № 1(38). С.92
4. Майбуров И.А. Оценка налоговых расходов и эффективности налоговых льгот//Общество и экономика. 2013. № 4. С. 87
5. Горский И.В. О налоговом регулировании, налоговых льготах и функциях. // Экономика. Налоги. Право. 2014. № 3. С. 22
6. Ганусенка, Е.В. Налоговая политика в механизме взаимодействия государства, права и экономики / Е.В. Ганусенка // Сибирский юридический вестник. – 2017 – №1. – С. 15-22
7. Э. Буто (E. Buteau), Ф. Бьюкенен (P. Buchanan). Состояние дел в сфере оценки эффективности фондов. Опрос руководителей фондов. (The State of Foundation Perfromance Assessment. A Survey of Foundation CEOs). 2011.
8. Е.И. Андреева, И.Д. Горшкова, А.С. Ковалевская. Рекомендации по оценке социально-экономической эффективности социальных программ. Определения, подходы, практический опыт /— М.: Издательство «Проспект», 2014. — 72 с.
9. Алексейчева Е.Ю. Налоги и налогообложение. Учение для бакалавров / – М.: Издательско-торговая корпорация «Дашков и К», 2017. – 300 с.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2024. № 6**

© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.